# Termiz shahrida 7-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti zamon talablariga mos ravishda ish faoliyatini boshladi.




Termiz shahrida 7-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti zamon talablariga mos ravishda ish faoliyatini boshladi.
7-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti bugungi kunda tashkilot zamonaviy standartlarga muvofiq mukammal ta’mirlandi. Ta’mirlashdan so’ng tashkilot 5 ta guruh 150 ta o’rindan iborat bo’ldi. 5 dona yangi bolalar uchun o’yin maydonchalari ham tashkil etilgan.
Tashkilot xonalari keng va yorug’, shu bilan birgalikda shinam ko’rinishda qurilgan. O’quv-mashg’ulot xonalari kuzatuv kameralari, xona haroratini me’yorda saqlab turuvchi sovutish va isitish tizimlari bilan to’liq ta’minlangan.
Tashkilotda tarbiyalanuvchilar foydalanishi uchun musiqa va jismoniy tarbiya zallari,

bolalar kutubxonalari, oshxona va bolalar yuvinish xonalari mavjud bo’lib, to’liq zamon talablariga javob beradi







